

TA'LIM-TARBIYANING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lism metodikasi yo'nalishi o'qituvchisi

Meliyeva Dilfuza

Denov tadbirkorlik va pedagogika pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 4- bosqich 3bt-21 talabalari :

Pirmatova Kamola Abdigapurovna

Bahramova Manzura

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lism-tarbiyada uchrayotgan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni hal qilish yo'llari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lism muhitida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism, tarbiya, muammo, yechim, metodika, innovatsiya, o'quvchi shaxsi, pedagogika, hamkorlik.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lism va tarbiya sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalash eng muhim vazifaga aylanmoqda. Bu esa ta'lism-tarbiya tizimida yuzaga kelayotgan muammolarga e'tibor qaratishni, ularni ilmiy asoslangan holda bartaraf etishni taqozo etadi.

Asosiy qism: Hozirgi ta'lism tizimining dolzarb muammolari orasida, eng avvalo, o'quv dasturlarining yangilanishi, interaktiv metodikalar yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarning sust qo'llanilishi muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, o'quvchi va

o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya madaniyati, motivatsiya yetishmovchiligi, pedagogik yondashuvlarning eskirganligi ham bu sohada e’tibor talab qiladi.

Tarbiya yo‘nalishida esa, yoshlarda axloqiy-ruhiy tushunchalarning shakllanishi, ijtimoiy ongning rivojlanishi, ixtisoslashgan psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim. Tarbiya oiladan boshlanadi, lekin bu jarayonni maktab va keng jamoatchilik davom ettirishi zarur. Afsuski, bu bo‘g‘inlar o‘rtasida uzviylik yetarli emas.

Zamonaviy ta’limda raqamlashtirish, onlayn platformalarning keng joriy etilishi, masofaviy ta’lim imkoniyatlari ham hali to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa ta’lim jarayonining texnologik jihatdan rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi.

Ta’lim-tarbiyadagi muammolar va ularning yechimlari

Quyida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlar keltiriladi:

- Ta’lim sifati va mazmunining zamon talablariga mos emasligi;
- O‘qituvchilarning zamonaviy metodikaga yetarlicha ega emasligi;
- Ota-onalar bilan aloqa va hamkorlikning sustligi;
- Tarbiya jarayonining tizimliligi yetarli emasligi;
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi.

Quyidagi chora-tadbirlar orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin:

- Ta’lim dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish;
- O‘qituvchilar uchun malaka oshirish va zamonaviy metodikani o‘rgatish bo‘yicha tizimli kurslar tashkil etish;
- Oilaviy tarbiya va maktab tarbiyasini uzviy bog‘lovchi mexanizmlarni ishlab chiqish;
- Tarbiya ishlariga psixolog va ijtimoiy pedagoglarni keng jalb etish;
- Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va infratuzilmani mustahkamlash.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va tarbiya tizimi – bu jamiyatning asosiy poydevoridir. Mazkur tizimdagи muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar zarur. Har bir o‘qituvchi, ota-onasi va jamoatchilik vakili bu tizimda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, hamkorlikda harakat qilishi zarur. Faqatgina uzviy hamkorlik, uzlucksiz rivojlanish va yangilikka ochiqlik bilangina biz farzandlarimizga yuksak ta’lim-tarbiya bera olamiz.